

CHO'LPON SHE'RIYATIDA RAMZLAR

Ismatova Mohigul

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14649743>

Annotatsiya. *Cho'lon o'zbek she'riyatida simvolist shoir sifatida alohida mavqega ega ijodkor. Uning she'rlarida ijtimoiy-siyosiy tushunchalarning ramziylashtirilishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Mazkur maqolada Cho'lon she'riyatida "quyosh" ramzi orqali badiiy talqin qilingan ijtimoiy-siyosiy muammolarning ifodasi hamda shoir mahoratiga baho berilgan.*

Kalit so'zlar. *Ramz, quyosh, oy, mifologiya, istiqloq, mustamlaka, Oktyabr, tong.*

Osmon va samoviy jismlar dunyo adabiyotida eng ko'p ramziylashtirilgan obrazlar sanaladi. Turkiy xalqlarning koinot haqidagi tasavvurida osmon va osmon unsurlari muhim o'rin tutadi. Eng qadimgi mifologik qarashlardan tortib bugungi zamonaviy adabiyotgacha bo'lgan davrlarni ko'zdan kechirsak, osmon va osmon jismlariga murojaat qilinmagan adabiyot ham, ijodkor ham topilmaydi.

Eng qadimiy qarashlarga ko'ra osmon Xudolar maskani. Osmon va samoviy jismlarga muqaddaslik baxsh etgan Xudolar samoviy jismlarda yashashiga ishonilgan. Samoviy jismlarning aylanishi, harakatlanuvchi bulutlar, bo'ronlar, chaqmoqlar, kamalaklar – bularning barchasi Xudoga atalgan jismlar deb qaralgan. Hatto osmon va unga tegishli unsurlarga kult darajasida qaralgan.

Osmon katta chodir bo'lib, uning ostida quyosh, oy va yulduzlardan iborat unsurlar mavjud. Turkiy xalqlar osmonni muqaddas deb bilishi va uni timsol qilish natijasida osmon bilan birga quyosh, oy, yulduz kabilar ham muqaddas sanalgan. Shuning uchun Xudoning makoni deb hisoblangan osmon bilan birga quyosh, oy va yulduzlar haqida ko'plab mifologik qarashlar va e'tiqodlar paydo bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Ta'kidlash kerakki, turkiylarning turli tarmoqlarida bu unsurlarning muqaddaslik darajasi har xil bo'lsa-da, odatda ular Xudoga yordam beruvchi mavjudotlar sifatida qaralgan.

Ma'lumki, insoniyatning ilk tasavvurlarida olam yaxshilik va yomonlik dunyosi sifatida tasavvur qilingan. Ular o'rtasidagi kurashda quyosh va oy zulmat bilan bog'liq bo'lgan yovuzlikka qarshi kurashda muhim himoyachi – homiy sifatida talqin qilingan. Bundan tashqari, turkiy xalqlarda har bir narsaning ruhi borligi haqidagi qarashlar ham bevosita samoviy unsurlar bilan bog'liq. Masalan, joni chiqqan insonning ruhi osmonga yulduz bo'lib porlashi haqidagi qarash ham koinot unsurlariga bo'lgan e'tiqot bilan bog'liq. Shuning uchun osmonning muqaddasligi bilan birga osmon bilan bog'liq deyarli barcha narsa, hodisa va vaziyatlar ham muqaddas hisoblanadi. Jumladan, *quyosh tutilishi, oy tutilishi, chaqmoq chaqishi* bilan bog'liq ilk tasavvurlarda ularning ilohiylashtirilganligini ko'rishimiz mumkin. Shu munosabat bilan ayrim olimlar turklarning qadimgi dinini "Ko'k turk" deb atashadi¹.

Turk xalqlar osmon va uning unsurlaridan kundalik hayotlarida osmonning muqaddasligi doirasida foydalanganlar. E'tibor bersak, har kuni quyosh chiqishi va botishi, fasllarning ma'lum

¹ <https://acikerisim.sakarya.edu.tr/bitstream/handle/20.500.12619/77430/T05542.pdf;jsessionid=1F9B3898BADB4A99B2B95A22883C1BEC?se>

vaqt oraliq'ida muntazam almashinishi orqali odamlar o'zlarining kundalik hayotini belgilab olganlar. Hatto kelajaklarini ko'rish uchun ham osmonga murojaat qilganlar.

Turkiy xalqlarda osmon – ko'k ulug'lilik ramzi sanalgan. Shuning uchun Xudoning osmonda ekanligini inobatga olinib, unga nisbatan “Ko'k Tangri” ifodasi qo'llangan. Ko'k Tangri - Ulug' Tangri, demakdir. Osmonga nisbatan bu sifatlashning ishlatilishi uni ulug'lash maqsadida bo'lganligidan darak beradi. “Ko'k Tangri” iborasidan kelib chiqib aytish mumkinki, osmonga yaratuvchi sifatida qaralgan, degan xulosaga kelish mumkin.

Bundan tashqari, Xudoning qarorgohi hisoblangan osmon rangi ramziylashtirilgan. Osmon rangi turkiy xalqlarning moddiy va ma'naviy olamida eng go'zal va eng qadrli rang hisoblangan.

Turklar uchun olov muqaddasdir, olov manbai esa osmon (Kökturk)dir. Osmon nima bersa, uni yer qabul qilib, insonlarga rizq qilib berdi, deb qaralgan.

Turklariylarda koinot va osmon jismlari bilan bog'liq ramziy tushunchalar islomdan keyingi davrda ham saqlanib qolgan. Ayniqsa, tasavuf ta'limotiga ko'ra, **Quyosh - Alloh** timsoli sifatida talqin qilingan. Bundan tashqari, islom dini asoschisi Muhammad (s.a.v)ning nurlari ham quyosh va osmondan tushadi, deb qaralgan. Umuman olganda, turkiylar osmon va uning unsurlaridan kundalik hayotlarida osmonning muqaddasligi doirasida foydalanadilar.

Osmon va osmon jismlari badiiy adabiyotda turli g'oyaviy niyat uchun xizmat qilgan. Navoiyshunos olim H. Eshonqulovning “*Samovat - ishq mahzari*” nomli tadqiqotida ulug' shoir Alisher Navoiyning “Badoe' ul-bidoya” va “Navodir un-nihoya” devonlarida qo'llangan osmon jismlarining ramziy ma'nolari o'rganilgan. Olim “*Islomiy – ma'rifiy adabiyot namoyandalari – mumtoz adiblariimiz asarlarida keltirilgan samoviy jismlar nomlarining timsol va ramzlik xususiyatlarini chuqur anglash ijodkorning badiiy mahorati hamda she'rda ilgari surgan g'oyasini teran tadqiq etish uchun nihoyatda muhimdir. Samoviy jismlar Alisher Navoiy she'riyatida ko'pincha yor va oshiq tushunchalari, sifatlari tarzida qo'llanadi. Bo'lar shoir nazmidagi faol badiiy obrazlar sanaladi*”², - deb ta'kidlaydi.

O'zbek mumtoz adabiyotida osmon jismlari o'z ma'nosidan tashqari, ramziy ma'nolarda “ko'p va xo'p” qo'llangan. Jumladan, **quyosh**-Alloh, ma'shuqa; **oy**- ma'shuqa, **yulduz** – go'zallik ramzi sifatida qo'llangan. Biroq osmon jismlari orqali ifodalangan ramziy ma'nolar o'zgarmas va turg'un emas. Aytmoqchimizki, ramzlar orqali ifodalangan ma'no vaqt o'tishi bilan o'zgarishga uchrashi, tabiiy hol. Buning asosiy sababi inson tafakkurining o'sishi hamda ijtimoiy-siyosiy hayotdagi muammolar bilan bog'liq. Shu bois ham osmon jismlari va ularga yuklangan ramziy ma'nolar o'zgarib borgan. Jumladan, jadid she'riyatida ham **quyosh, oy, yulduz** kabi ramziy obrazlar faol qo'llanilgan va har biriga o'ziga xos ma'no yuklangan.

Turkiy xalqlar madaniyatida samoviy elementlar haqida gap ketganda, quyosh eng keng tarqalgan ramziy obrazdir. Quyosh - turkiy xalqlar adabiyotida yorug'lik va ezgulik ramzi sifatida qo'llangan. Yorug'likning qorong'ulik ustidan g'alabasi quyosh ramzi bilan ifodalangan. Quyosh Xudoning nurini yerga, ya'ni odamlarga olib kelgani uchun odamlar uchun uni muqaddas, himoyachi va qutqaruvchi sanaganlar. “*Quyosh – barcha xalqlarga ma'lum bo'lgan eng qadimgi*

² Эшонкулов Х. Самовот – ишқ маҳзари. Истиқлол даври навоийшунослиги. XXX жилдлик. XXIII жилд – Т.: “Тамаддун”, 2021. 11-б.

kosmik ramz; hayot manbai, yorug'likni bildiradi. Quyosh ramzlari bilan ustuvorlik, hayot yaratish, faollik, qahramonlik negizi, hamma narsani bilish kabi xususiyatlar bog'lanadi".³

Quyosh jadid she'riyatida ham ramziy-timsoliy obraz sifatida o'ziga xos ma'no tashigan. Mazkur obraz jadid shoirlaridan Cho'lpon she'riyatida ko'p qo'llangan.

Ta'kidlash kerakki, shoir va yozuvchilar o'zlari yashagan davrni o'z asarlarida qayta yaratadilar. Buning uchun o'zlari yashagan jamiyatni, ijtimoiy-siyosiy muhit, diniy hayot, tarixiy voqealar, davr odamlari, makon va joylarini o'z kuzatishlari va badiiy tafakkurlari orqali ramzlar olamida badiiy talqin etadilar.

Cho'lponning ijodida quyosh ramziy obraz sifatida davrning og'riqli nuqtalarini, shoir qalbini o'rtagan millat, xalq taqdiri bilan bog'liq siyosiy muammolar talqini uchun buysundirilgan. Cho'lpon mumtoz adabiyotning o'lmas an'alaridan, ohang va obrazlaridan mohirona foydalandi. Mumtoz she'riyatdagi yetakchi bo'lgan ishq mavzusining Cho'lpon lirikasida ma'no qirralari kengaydi. Buni shoirning mashhur "Qalandar ishq" she'rida ham ko'rishimiz mumkin. G'azal ma'tasida quyosh ramzi ijtimoiy muammolarning badiiy ifodasi uchun xizmat qilgan.

Muhabbat osmonida go'zal Cho'lpon edim, do'stlar,
*Quyoshning nuriga toqat qilolmay yerga botdim-ku*⁴

Mumtoz she'riyat ohanglari yaqqol sezilib turgan mazkur baytda bir qarashda intim tug'ular yetakchilik qilganday tuyuladi. Cho'lponing bu g'azaliga, ayniqsa, g'azal maqtasiga yirik adabiyotshunoslar munosabat bildirganlar va uni turli xil talqin qilganlar. Jumladan, adabiyotshunos olim tomonidan Ozod Sharofiddinov "*bu baytda oshiq sevgan yorini quyoshga, o'zini esa yulduzga qiyos qilyapti, ammo oshiq yor vasliga erisha olmaydi, chunki quyosh chiqqanda yulduz bekinmog'i kerak.*" Olimning bu talqinida quyosh va yulduz ramziy obrazlari bilan bog'liq an'anaviy qarashlarga tayanilgan. Xuddi shu baytga munosabat adabiyotshunos olim D.Quronov tadqiqotlarida ham kuzatiladi. Olimning e'tiroficha "*... maqta'dagi shoir taxallusining asl ma'nosi ramziy ma'noga ishora qiladi, muhabbat osmonidagi yulduz quyosh chiqishi bilan so'nishga majbur bo'ldiki, bu bilan Oktyabr inqilobining mustaqillik uchun kurash payini qirqqaniga ishora qilinayotir*".⁵ Ko'rinib turibdiki, bir bayt doirasida bildirigan fikrlar zohiriy va botiniy ma'nolarga ega.

Cho'lpon baytda quyosh va yulduz kabi osmon jismlarni ramziylashtirgan. Cho'lpon – tong yulduz. Cho'lpon (Venera) yorqinligi bo'yicha osmondagi uchinchi jism. Shoir baytda Cho'lpon so'zni ham yulduz nomi (kosmonim), ham taxallus ma'nosida qo'llagan. Quyoshning "bosh ko'tarishi" osmondagi yulduzning ko'rinmasligiga sabab bo'ladi. Baytda shoir mazkur tabiiy holatni tasvirga olib, o'zining ijtimoiy g'oyalarini badiiy talqin qilgan.

Turkiy xalqlar adabiyotida Quyosh hamisha ijobiy ma'nolarda qo'llangan ramziy obraz sanaladi. Biroq shoir maqta'da quyoshni erk va ozodlik ramzi bo'lgan Cho'lpon yulduzini "erga botishi"ga sababchi bo'lganligini ta'kidlaydi. Demak, baytda quyosh ramziga salbiylik bo'yog'ida berilgan. Quyosh – o'zbek xalqiga erkinlik berishni va'da qilgan Oktyabr inqilobining

³ Мингбоева Дилрабо.Тимсолар тилсими. –Т.: Янги аср авлоди. 2007. 32-34 –б.

⁴ Чўлпон. Яна олдим созимни. -Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1991. 17-б.

⁵ Д.Қуронов. Чўлпон ҳаёти ва ижодий мероси. Т.: Ўқитувчи, 1997. – Б.36

ramzi edi. Bu “quyosh” millatning boshiga “zulm”larini sochdi, xalqni erkidan, huquqidan mahrum qildi. Mustabidlik zanjirini millatning bo‘yniga osdi.

Jadid adabiyotning yirik tadqiqotchisi Begali Qosimovning baytga doir mulohazalarida ham mazkur ramzlar ijtimoiylik nuqtayi nazaridan baholanganligini ko‘rishimiz mumkin. *“Shubha yo‘qki, “Cho‘lpon” va “Quyosh”ning ma‘nolari bu yerda juda keng. U osmon yoritqichlari va ishq-muhabbatdagi martabadan hokim va mahkum, hukmron va tobe singari ijtimoiy-siyosiy rutbalargacha daxddor”*.⁶

Cho‘lpon birgina baytda osmon, quyosh, yulduz kabi tabiat unsurlarni ramziylashtirishga erishgan. Ko‘rinib turibdiki, “Cho‘lpon” va “Quyosh” ramzlarini – osmon yoritqichlari – ishq-muhabbat – ijtimoiy-siyosiy muammolarni talqini uchun xizmat qilgan.

Adabiyotda quyosh obrazi ramziylashtirilgan ekan, uning *harakati, holatlari, ya‘ni “chiqishi”, “botishi”, “qizarishi” “tutilishi”* kabilarga ham alohida e‘tibor berilgan. Buni shoirning “Tortishuv tongi” she‘rida ham ko‘rishimiz mumkin.

Yenggan qo‘shin boshlig‘idek gerdayib

Botgan quyosh bulutlarning ostidan

Bosh ko‘tarib chiqmoq uchun tirisha.

Shuning uchun beri yoqda irjayib

Kulishurlar.

Unga qarshi, qarshidan

Yig‘lov, siqtov, tovush, g‘avg‘o, xarxasha.⁷

Shoir she‘rning dastlabki bandida osmondagi quyoshning botishi va uning bulutlar ostidagi “kurashi”ni ramzlashtirgan. Botgan quyoshning bulutlar ostidan “gerdayib” bosh ko‘tarib chiqishiga intilishini *kurash va umid* ramzi sifatida anglash mumkin. Shoir quyosh ramzi orqali erk va ozodlikka intilgan millat qiyofasini badiiy talqin qilgan. *“Botgan quyosh bulutlarning ostidan, Bosh ko‘tarib chiqmoq uchun tirishi”*shi Turkiston xalqlarning ozodlik yo‘lidagi harakatlariga ishora qiladi. Bu harakatlarga esa “irjayib” kulayotganlar ham bor. Irjaymoq – kulishning bir ko‘rinishi. Shoir o‘zi ramzlashtirmoqchi bo‘lgan g‘oyaning badiiy ifodasi uchun tanlagan har bir so‘z g‘oya uchun bo‘ysundirilgan. “Irjaymoq” salbiy konnotativ ma‘noga ega so‘z. Shoir birgani shu so‘z orqali millat taqdirining tragik holatini ko‘rsatib berishga erishgan. “Irjayib kulish”da tahrirlash, xo‘rlash, istehzo bor. Bandning oxirgi ikki misrasida “irjayib kulish”ga *“Yig‘lov, siqtov, tovush, g‘avg‘o, xarxasha”* qarshilantirilgan. Bu “oddiy yig‘i” emas, balki butun millatga tegishli “yig‘i”dir.

She‘rning keyingi bandida shoir tasvirni “ko‘pdan beri zindonda quyosh ko‘rmay zaxlab qolgan ko‘ngillar”ga ko‘chiradi. “Chiqar kunlar yetdi sizga” deya istiqloq tongiga bashorat qiladi.

Qayg‘uringiz:

Kishanlarni yasovchi

ustalar.

Boshqalarni tubanlar deb atovchi

⁶ Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У., Ризаев Ш, Аҳмедов С. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Олий ўқув юртларининг филология факультетлари учун дарслик. – Тошкент: Маънавият, 2004. 446-б.

⁷ Чўлпон. Яна олдим созимни. -Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1991. 17-б.

xo'jalar,
Sizning uchun yoz boshining qoridek
Eruv kunlar keladir,
Sizning uchun alvastining zoridek
yig'lar kunlar keladir...

Diqqat qilsak, shoir ramzlarni qatorlashtirib keltiradi. *“Kishanlarni yasovchi “ustalar”, Boshqalarni “tubanlar” deb atovchi xo'jalar*” – mustamlakachilar, “yangi tuzum”ning “yalovbardorlari”. Shoir ular uchun *“yoz boshining qoridek eruv kunlar kelishi”, “olbostining zoridek yig'lar kunlar yetishi”*dan xabar beradi. Bu esa shoir qalbidagi, millatning orzusidagi istiqloqlan bo'lgan umidga ishoradir.

Chiqadigan quyoshni siz behuda
Etak bilan to'smoq uchun tirishmang,
Axmoq bo'lib Azroilning oldida
Jon talashing, to o'lguncha berishmang.

She'ning yakunida shoir yana quyosh ramziga murojaat qiladi. “Chiqadigan quyosh” – istiqloq quyoshi, mustaqillik quyoshi. Shoir o'zing obrazli fikrni tasdiqlash uchun *“Oyni etak bilan yopib bo'lmaydi”* degan xalq maqolini o'zgartirib keltiradi. Maqol tarkibidagi “oy” ni “quyosh” bilan o'zgartirishida ham ma'lum ma'noda bo'yoqdorlik bor. Aslida, oy quyoshdan nur oladi. Bundan tashqari, qadimdan quyoshga yorug'lik va ezgulik ramzi sifatida qaralgan. Shoir shuning uchun bo'lsa kerak, shoir maqol qo'llangan so'zni o'zgartirgan.

Cho'lpon quyoshni ramziylashtirar ekan, u bilan bog'liq mifologiy qarashlardan ham o'rinli foydalanadi. Quyosh va oyning tutilishi tabiiy hodisa. Biroq turkiy xalqlarda bu tabiiy hodisaga doir turli mifologik qarashlar paydo bo'lgan.

Mifologik qarashlarda bu tabiiy hodisaga salbiy bo'yoq berilgan. Quyosh yoki oyning tutilishi omadsizlik, o'lim, ofatdan darak beradi,– deb qaralgan. Aytishlaricha, qadimgilar yozuv kuchlar quyosh va oyni o'g'irlab ketishgan, deb ishonganlar Yozuv kuchlar zulmatni yaxshi ko'rgan. Oy va quyosh nurli. Yovuz kuchlar esa zulmatni yaxshi ko'rganliklari bois, yorug'lik va tovushdan qochishgan. Shuning uchun ham ko'p joylarda, Oy va Quyosh tutilishida odamlar shovqin ko'tarib, yovuz kuchlarni qo'rqitishga harakat qilishgan.

Shamanistlarning e'tiqodiga ko'ra, quyosh va oy tutilganda, shamanistlar ularni yovuz ruhlardan qutqarish uchun baqirgan va nog'ora chalishgan. Ular bu shovqinlar yovuz ruhlarni qo'rqitishiga ishonishgan. Ko'rinib turibdiki, odamlar oy va quyosh tutilishini omadsizlik deb hisoblaydilar va bunday tabiiy hodisalarning sodir bo'lishidan qo'rqishadi.

Jadid she'riyati *“quyoshning tutilishi”* hodisasi ham ramziylashtirilgan. Cho'lponing “Oktyabr” (7 noyabr) nomli she'ri fikrimizni tasdiqlaydi.

Ey, bukun, ey bu kun
Dunyolar sarsildi!
Fikrlar, xayollar,
Ro'yolar sarsildi!

Ey, bukun, olovlar
Dunyoni yondirdi,

Insonlar och yerni
Qonlarga qondirdi!

Ey, bukun, ko'klarda
Quyoshlar tutildi.
Ey, bukun, shamollar,
Bo'ronlar qutirdi!...⁸

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasining Turkistonni zabt etishi, mintaqadagi xalqlarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotidagi o'zgarishlarga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu jarayon, faqatgina ma'muriy nazorat bilan cheklanib qolmadi, balki mahalliy aholining huquqlari va erkinliklarini cheklash, ularni mustabidlik zanjiriga solishga sabab bo'ldi.

Mustabidlikka qarshi kurash, Turkiston xalqlari orasida milliy harakatlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Xalqlar adolat va huquqlarini talab qilish uchun kurashga chiqdi. Bu kurashda esa shoir-u yozuvchilar ham peshqadam bo'ldilar. Ular orasida Cho'lpon ham bor edi.

Cho'lponning yuqorida parcha keltirilgan "Oktyabr" she'rining har bir bandida "shonli oktyabr"ning oqibatlarini tadrijiy, tragik kayfiyatda ramziylashtirilgan. She'rning "Ey, bugun, ey bukun" tarzidagi murojaat bilan boshlanishida "o'sha kunga" nafrat hissi yaqqol sezilib turadi. Chunki bu shunday kunki, dunyolar, fikrlar, ro'yolar sarsilgan. Sasilgan – sarson bo'lgan. Sarson bo'lgan xalqning ahvoli hammaga ayon. Bu xalq, shoir aytganidek, "olovlar ichida".

Cho'lpon "Qalandar ishq" she'rida Oktyabr inqilobini "muhabbat osmoni" – yurt ozodligi uchun kurash yo'lini yoritib turgan yulduzni yerga botirgan "quyosh" ramzi bilan bergan bo'lsa⁹, mazkur she'rda "olov" Oktyabr inqilobining ramzi sifatida berilgan. Bu inqilob va'da qilingan ozodlikni emas, balki mustamlaka tamg'asini xalqqa tuhfa qildi. Shu bois, Cho'lpon "Oktyabr inqilobi" tushunchasini salbiy bo'yoqlarda, ramzlar orqali badiiy talqin qiladi.

Cho'lpon mumtoz adabiyot va uning namoyandalari ijodidan samarali oziqlanganni holda, xalqda shakllangan mifologik qarashlar, xalq ijodidan ham unumli foydalandi. Tahlilga tortganimiz she'rning uchinchi bandida shoir "tutilgan quyoshlar" birikmasini keltiradi. "Tutilgan quyosh" istiqlool ramzi. Shoir "tutilgan quyosh"ga paralel ravishda "qutirgan shamollar, bo'ronlar" tasvirini keltiriladi. Shamol va bo'ronlar mustamlakachilar va ularning zulmiga ishora. "Tutilgan quyosh" ramzi yuqorida ta'kilanganidek, xalqda shakllangan oy va quyoshning tutilishi bilan bog'liq xalqona qarashlar asosida shallantirilgan.

Cho'lponning "Oktyabr" she'ri uch qismdan iborat. Albatta, shoir bu bilan o'ziga xos maqsadni ko'zlagani ayon. She'rning birinchi qismi olti bandan iborat bo'lib, quyidagi misralar bilan yakunlanadi.

Ey, bukun, do'l kelib
Olamni yiqqan kun!
Ey, bukun, kurramiz,
Mehvardan chiqqan kun!..

⁸ Чўлпон. Яна олдим созимни. -Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1991. 108-б.

⁹ Бу ҳақда қаранг: Куронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. "Шарқ" нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти.Т.: – 2004; Куронов Д. Чўлпон ҳаёти ва ижодий мероси. –Т.: "Ўқитувчи",1997.

Shoir Oktyabr inqilobi ro'y bergan kunni "do'l kelib olamni yiqqan" kun tarzida tasvirlaydi. Bu "do'l" Yer kurrasini mehvaridan chiqargan. Mehvaridan chiqqan sayorada esa hayot bo'lmaydi. "Do'l" – Oktyabr inqilobning kelishi va uning jamiyatga olib kelgan salbiy o'zgarishlariga ishora. Uning qarshisida millat ojiz. Shoir bu "ojiz"likni "yiqish" so'zi orqali ifodalaydi. "Yiqish" zo'ravonlik, qurbonlik, zulm va haqsizlik demakdir.

She'ning ikkinchi qismida, lirik qahramoning kayfiyatida sokinlik, umidvorlik hislari seziladi. U do'stiga murojaat qilib,

Hech narsa bo'lmadi!

Na to'fon, na vulqon.

Yolg'iz, haq yo'llarda

Oqdi qon, oqdi qon... deya, xalqning bukilmas irodasiga, erk, ozodlik yo'lidagi harakatlariga ishora qiladi. Oktyabr inqilobini "qish" bilan qiyoslash orqali uning "qorong'u" kelajagidan darak beradi. "Oktyabr onida Kuz ketgan. Qish yovuq"...

Shoir she'ning ikkinchi qismining yakunida yana "do'l" bilan bog'liq tasvirlarni keltiradi.

Shugina:

Do'l kelib

Olamni yiqmadi,

Va yerning kurrasi

Mehvardan chiqmadi.

Shoir bu tasvirlar bilan xalqning erk va ozodlik haqidagi orzu-umidlarining so'nmaganligini ta'kidlaydi. Buni she'ning ikki banddan iborat uchinchi qismidagi "*Do'llarning olamni yiqishi – Hechdir! Kurraning mehvardan chiqishi –Hechdir!*" kabi iqrorida yanada yorqinroq ko'rishimiz mumkin.

Umuman, Cho'lpon she'riyatida "**quyosh**" – istiqlol, erk va ozodlik timsoli sifatida badiiy talqin qilingan. Shoir "quyosh" ramziylashtirar ekan, u bilan bog'liq xalqda shakllangan mifologik qarashlarga, folklor, mumtoz adabiyot an'alaridan unumli foydalanadi.

She'ning emotsional ta'siri juda kuchli. Cho'lponning ijodida realizm va simvolizmning mukammal birlashuvi shoir she'rlarining asl mohiyatini tashkil etadi. U realistik tasvirlar orqali hayotning murakkabliklarini ko'rsatsa, simvolik obrazlar bilan jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy muammolarga munosabat bildiradi. Cho'lpon she'riyatidagi har bir poetik ramz shoirning lirik kechinmalari va orzu-armonlari bilan birga, aniq ijtimoiy-tarixiy voqelikni ham tasvirlaydi.

Cho'lpon she'riyatida *istiqlol, erk, hurlik* kaabi ijtimoiy-siyosiy tushunchalarni aks ettiruvchi ko'plab ramzlar ishlatilgan. Bu ramzlar shoirning o'z davridagi ijtimoiy va siyosiy muammolarni, xalqining azob-uqubatlarini va ozodlikka bo'lgan intilishlarini ifodalashda muhim rol o'ynaydi.